

**CHET TIL MASHG‘ULOTLARIDA O‘QISHNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR
(Comments on linguoculturological features of reading in foreign language
training)**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-315-319>

Sh.A. Atayev

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari akademiyasi

e-mail:shukur-aliataev@yandex.ru tel: +99893 375-10-62

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola o‘qishning lingvokulturologik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Muallif ko‘pgina olimlar tomonidan taklif etilgan tavsif va tasniflariga to‘xtalib o‘tgan. Chet til matnidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish usullari taklif etilgan.

***Kalit so‘zlar:** nutq faoliyati, o‘qish, tasnif, tavsif, matn, chet til, nemis tili, o‘rganish, lingvokulturologik..*

ABSTRACT

This article is devoted to the linguocultural peculiarities of reading. The author considers the characteristic and classification of reading suggested by the majority of scientists. The ways of overcoming foreign literature difficulties are considered..

***Keywords:** speech activity, reading, types of reading, studying reading, classification, characteristic, text, foreign language, the German language, training, linguocultural.*

KIRISH

Ta’lim oluvchilar chet tillarni o‘rganish jarayonida albatta turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularni asosan xorijliklar bilan muloqot qilishda yoki bo‘lmasa biron-bir xorijiy matnni o‘qish jarayonida kuzatishimiz mumkin. Chet tilni ma’lum bir maqsadda o‘rganuvchilar tinglab tushunish va o‘qish jarayonida, chet tilga oid bo‘lgan ko‘chma ma’nodagi so‘z, ibora va frazeologizmlarga duch keladilar, ya’ni o‘rganilayotgan tilning lingvokulturologik xususiyati namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida matnda ifodalanayotgan fikrni tushunishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Aslida chet tilni o‘qitishdan maqsad – talabalarda chet tilni amaliy o‘zlashtirish, ularda kommunikativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bilan birga

o‘rganilayotgan tilda o‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirish ekanligini unutmazlik lozim. Umumta’lim muassasalariga chet tilni o‘rgatishda asosiy vazifalar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- chet tilni madaniyatlararo ta’lim vositasi sifatida o‘rgatish;
- dunyo va o‘z milliy madaniyati yutuqlarini idrok etish asosida o‘rgatish;
- ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba, kursant, tinglovchi)larni o‘zga til madaniyatini bag‘rikenglik asosida, ya’ni milliy stereotiplarni tushunish va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish maqsadida egallash.

Hozirgi kunda nemiszabon mamlakatlarda o‘qish nutq faoliyat turini o‘rganilishiga doir ko‘pgina ilmiy adabiyotlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, o‘qish kompetensiyasining tuzilishi va shakllanishi [U.Shifele, 2000], matnlarni o‘qish: matn tushunish – o‘qish didaktikasi – o‘qishning ijtimoiylashuvi [Garbe, Holle, Jesch, 2009], o‘qishni o‘rgatishda ko‘nikma va kompetensiya [Bräuer, 2010], o‘qish didaktikasi va tizimli o‘rta ta’limda o‘qishni shakllantirish asoslari [Rosebrock, Nix, 2014: 15], ona tili (Erstsprache), ikkinchi til (Zweitsprache) va chet til (Fremdsprache)da o‘qish kompetensiyasi shakllantirish [Lutjeharms, Schmidt, 2010], o‘qishni o‘rganish va o‘rgatish [Schenk, 2016], shu o‘rinda mazkur muammo nemiszabon mamlakatlar, ya’ni Shveysariyada chet til o‘qitish metodikasi vakillari tomonidan ham etarli darajada tadqiq etilgan, ya’ni o‘qishga yo‘naltirish [Filipp, 2012] va o‘qishning pedagogik psixologiyasi [Grissemann, 1986], Avstriya maktabi vakillari tomonidan o‘qishning bugungi kundagi istiqboli [Beutner, Tanzer, 2010] masalalari atroflicha tahlilga tortilgan.

Xususan, O‘zbekistonda chet til o‘qitish metodikasida nutq faoliyat turlari maxsus ilmiy muammo sifatida o‘rganilgan bo‘lib, jumladan R.A.Zaripova, O‘.H.Hoshimov, I.Ya.Yoqubov, S.Saydaliyev, J.Jalolovlarning ishlarida nutq faoliyat turlarining tavsif va tasnifi, o‘rgatish prinsiplari, lingvistik va psixologik masalalariga to‘xtalib o‘tilgan. XXI-asrga kelib, tilda faqatgina leksik, grammatik va fonetik hodisalarni o‘rgatish bilan birga umuman ta’lim tizimida yosh avlod (o‘quvchi, talaba)ga o‘rganilayotgan chet tilda qayd etilgan madaniy merosni o‘zlashtirish, ya’ni madaniyatni til orqali o‘rganish masalasi ustivor vazifa sifatida qaralmoqda. Mustaqillik yillarida mazkur masalani o‘rganish va uzluksiz ta’lim tizimiga tatbiq etish yo‘lida qo‘yilgan ilk qadam, ya’ni 2012 yil 10 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining qabul qilgan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan hayotga tatbiq etish boshlandi. Bunday talab mamlakatimizni mustaqillik yillarida dunyo

hamjamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida jahonga yuz tutayotgan bir vaziyatda bozor iqtisodiyoti va axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida chet til o’rganishga ehtiyoj kuchaydi. Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida ta’lim sohasida Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun I-IX sinflar uchun chet (ingliz, nemis, fransuz) til fanidan o’quv dasturi ishlab chiqildi.

Umuman olganda, chet tilni lingvomadaniy xususiyatlar orqali o’rganish masalasi pedagoglar oldida turgan mas’ulyatli vazifadir. Nutq faoliyati turlari haqida mulohaza qilar ekanmiz, o’qish reseptiv nutq faoliyat turi bo’lib, uning asosiy maqsadi – yozma matn ifodalangan ma’lumotlarni olish bo’lib, o’qish aslida – fikrni grafik shaklda ifodalash bo’lib, ilmiy adabiyotlarda shunday talqin etiladi, ya’ni “o’qish deganda harfiy belgilarda ifodalangan nutqiy axborotni idrok etish va uning mazmunini payqash jarayoni tushuniladi” [Jalolov, 2012: 252].

Ilmiy adabiyotlarni tahlili natijasida, o’qishning tushunish xarakteriga ko’ra ellikdan ortiq turi qayd etilgan. O’qishning asosiy turlariga „o’rganuv o’qish“, „ma’lumotli o’qish“, „ovoz chiqarib o’qish“, „ovoz chiqarmay o’qish“, „uyda o’qish“ va „individual o’qish“ kiradi. O’rganilayotgan tilga oid bo’lgan lingvokulturologik xususiyatlar asosan o’rganuv o’qish jarayonida kuzatiladi. Bu o’qish turidan maqsad – matn tarkibidagi turli lingvistik vositalar, shuningdek, makon va zamon bilan bog’liq tushunchalarni izlash, ularni kelib chiqishi va anglatgan ma’nolarini atroflicha o’rganish va tahlil qilishdan iborat. Misol tariqasida nemis adibi Y.V.Gyotening “Faust” tragediyasida makon bilan bog’liq nomlarni tahlilida quyidagilarni kuzatish mumkin: “Valpurgiya kechasi”(afsonaga ko’ra, 30 apreldan 1 mayga o’tar kechasi Broken tog’ida jinlar bazmi bo’ladigan joy), yoki bo’lmasa “Alvastining oshxonasi” bilan bog’liq holat shunday tasvirlangan, ya’ni pastak o’choqda yonayotgan katta qozon, undan chiqayotgan bug’da sirli sharpalarni namoyon bo’lishi, urg’ochi maymun qozonning ko’pigini olib, shopirib turishi, erkak maymun esa, o’choq boshida bolalari bilan isinib o’tirishi va shift hamda devorlarda osilgan asboblarni fantastik ko’rinishga ega. Kulba bu tarzda tasvirlanishini ilohiylik bilan bog’lash mumkin. Bularni barchasi asarni ramziy ma’noga ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, toponimlarga ham alohida to’xtalish maqsadga muvofiqdir, misol uchun Leypsig maftunkorligini Parijga qiyoslanishi quyidagi misralarda kuzatish mumkin: Wahrhaftig, du hast recht! Mein Leipzig lob ich mir!//Es ist klein Paris und bildet seine Leute. Asliyatdagi shu misralar o’zbek tilidagi P.Usmon tarjimasida shunday berilgan: Sen haqlisan, darhaqiqat!// Leypsigim madh etsa bo’lur!//Kichik Parij deb sanalur,// Elga baxsh etar ma’rifat.

Shuningdek, ta’lim oluvchilar chet tildagi matnni tahlil qilar ekanlar, undagi mavjud lingvomadaniy soʻz va iboralarga duch keladilar. Mazkur obrazli asosga ega turli vositalar orqali talaba chet tilga oid lingvomadaniy xususiyatlarni oʻrganadi. Natijada mashgʻulotlar jarayonida talabalar sotsiokulturologik kompetentsiyaga ega boʻla boshlaydilar, oʻrganilayotgan tilda qayd etilgan urf-odatlar, bayramlarni maʼnosini idrok qila boshlaydilar, yaʼni chet til orqali oʻzga madaniyatga xos belgilarni oʻzlashtiradilar, yaʼni turli obrazli asosga ega boʻlgan vositalarni, frazeologik birliklar, maqol va matallarni ona tili bilan qiyoslaydilar, misol uchun nemischa “Im Meer ertrinkt kein Fisch” maqoli oʻzbek tilida shunday ekvivalentga ega “Karvon koʻp – risqi boʻlak”. Maqollarni faqrlari va oʻxshash taraflarini tahlil qilish orqali xorijiy tilga xos boʻlgan lingvokulturologik jihatlarni oʻrganiladi.

XULOSA

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, chet tillar hozirgi kunda zamon talabi boʻyicha oʻrganish talab etilmoqda. Ta’lim jarayonida, yaʼni chet til mashgʻulotlarida mazkur masalani yechishini lingvokulturologiya fani doirasida amalga oshirish, yaʼni oʻzga madaniyatga xos jihatlarni til orqali oʻrgatish va oʻrganishni talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Bräuer Ch. Könnerschaft und Kompetenz in der Leseausbildung. Theoretische und empirische Perspektiven. – Weinheim: Juventa, 2010. – 392 S.
2. Garbe Ch., Holle K., Jesch T. Texte lesen: Textverstehen – Lesedidaktik – Lesesozialisation. – Paderborn: Schöningh. 2009. – 252 S.
3. Hoshimov Oʻ.H., Yoqubov I.Ya. Ingliz tili oʻqitish metodikasi. – T.: Sharq, 2003. – 302 b.
4. Jalolov J. Chet til oʻqitish metodikasi. – T.: Oʻqituvchi. 2012. – 430 b.
5. Karimov I.A. “Chet tillarni oʻrganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ 1875-sonli qarori. Maʼrifat. – 2012, № 99 (8540).
6. Lesen. Heute. Perspektiven. Eduard Beutner. Ulrike Tanzer (Hrsg.). – Innsbruck: Studien Verlag. 2010. – 260 S.
7. Lesekompetenz in Erst-, Zweit- und Fremdsprache. Lutjeharms M., Schmidt C. (Hrsg.). – Tübingen: Günter Verlag. 2010. – 200 S.
8. Philipp M. Motiviert lesen und schreiben. Dimension, Bedeutung, Förderung. – Seelze: Friedrich Verlag. 2012.

9. Rosebrock C., Nix D. Grundlagen der Lesedidaktik und der systematischen schulischen Leseförderung. – Baltmannsweiler: Schneider Hohengehren, 7. Überarbeitete und erweiterte Auflage. – 2014. – S. 15.
10. Saidaliyev S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan, 2004. – 238 b.
11. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun nemis tili fanidan o'quv dasturi (I-IX sinflar)// Xalq ta'limi. – Toshkent, 2013. – 5-son. – 144 b.
12. Zaripova R.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1986. – 184 b.
13. Khasanova, G. K. (2021). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1*(Special Issue 1), 257-262.
14. Kh, Khasanova G., and Kenjaboev Sh Kh. "The role of education system in human capital development." *Восточно-европейский научный журнал* 2-1 (66) (2021): 48-51.
15. Хашимова, С. А. (2021). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1*(Special Issue 1), 268-285.
16. Насирова, С. А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. In *Китайская лингвистика и синология* (pp. 384-387).
17. Насирова, С. А. (2021). ВОЕННАЯ СИСТЕМА ДРЕВНЕГО КИТАЯ: ОБЗОР ТЕРМИНОВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1*(Special Issue 1), 139-146.
18. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10